

CHARACTERISTICS OF PHYSICAL EDUCATION OF CHILDREN OF KINDERGARTEN AND SCHOOL AGE

Sh. A. Abdusalilova

Chirchik State Pedagogical University

Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor.

ABSTRACT

The article discusses the characteristics, forms and means of physical education of preschool and school-aged children.

Keywords: preschool, school, children, physical, education, characteristic, form, means.

MAKTABGACHA VA MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARNI JISMONIY TARBIYALASH XUSUSIYATLARI

Shoira Abdumajidovna Abdusalilova

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.

ANNOTATSIYA

maqolada maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarni jismoniy tarbiyalashning xususiyatlari, shakllari hamda vositalari to'g'risida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha, maktab, bolalar, jismoniy, tarbiya, xususiyat, shakl, vosita.

O'zbekiston Respublikasini 2022-2026 yillarda innovatsion rivojlanishi Strategiyasida "sifatli ta'limga erishish va "aqli ta'limni" joriy etish" vazifasi qo'yilgan [1]. Buning ma'nosi shuki, barcha fuqarolarni ta'lim bilan qamrab olish va o'qitishning yangicha usullarini amaliyotga tadbiq etishdan iborat. Shu jihatdan jismoniy va aqliy imkoniyatlari cheklangan bolalarni sifatli ta'lim bilan qamrab olish va ularga yangicha yondoshuvlar asosida bilim berish dolzarb hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakatimizda maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarni tarbiyalash davlat ta'lim siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biridir[2].

Bu o'rinda maktabgacha yoshdagi bolalar deganda 2-5 yoshdagi ta'lim oluvchilarni, maktab yoshidagi bolalar deganda esa 6-7 yoshdagi ta'lim oluvchilarni nazarda tutamiz. Mazkur yoshdagi jismoniy va aqliy cheklangan bolalarni jismoniy tarbiyalash o'ziga xos yondoshuvni taqazo etadi. Bu toifadagi bolalarni jismoniy tarbiyalashda quyidagilarga amal qilish kutilgan samarani beradi:

- a) har bir bolaga nisbatan yakka tartibda yondoshish;
- b) bolalarning jismoniy imkoniyatlarini o'rganish;
- v) jismoniy tarbiyalashda maxsus rejaga ega bo'lish.

"Davolovchi pedagogika" o'quv fanining qonuniyatlariga ko'ra, jismoniy va aqliy cheklangan bolalarni jismoniy tarbiyalashda *yakka tartibda* yondoshish zaruriyat hisoblanadi[3]. Buning uchun tarbiyalanuvchining qiziqishi, xohishi va istagiga ko'ra jismoniy tarbiya amalga oshiriladi. Bunday tarbiyada pedagogik, fizialogik va tibbiy vositalar asosida mashg'ulotlar

o'tkaziladi. Mashg'ulotlarning pedagogik xususiyati bolani adaptatsiya qilish, fiziologik xususiyati bolani chiniqtirish va tibbiy xususiyati esa bolani sog'lomlashtirish bilan belgilanadi. Jismoniy va aqliy imkoniyati cheklangan bolalarning jismoniy tarbiyasi reglamenti kuniga 10-15 daqiqadan oshmasligi kerak. Chunki bunday toifadagi bolalarning fiziologik xususiyatlari va tibbiy immunitetlari past hisoblanadi.

Maktabgacha va maktab yoshidagi jismoniy hamda aqliy imkoniyati cheklangan bolalarning *jismoniy holatlari* o'rganilish shart. Chunki jismoniy imkoniyatini aniqlash jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini rejalashtirishda asos bo'ladi. Kezi kelganda ta'kidlash lozimki, bu toifa bolalarni jismoniy tarbiyalashda ish rejasiga tibbiy muolaja, jismoniy mashqlar, massaj kabi shakllar kiritilishi lozim. Chunki bunday mashg'ulotni olib boruvchi pedagoglar sog'lomlashtiruvchi shaxslar hisoblanadi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, jismoniy imkoniyati cheklangan bolalarni treninglar vositasida chiniqtirish, aqliy imkoniyati cheklangan bolarni esa jismoniy mashqlar asosida faollashtirish kutilgan samarani beradi. Bunday ko'nikmalar pedagoglar tomonidan ota-onalarga ham o'rgatilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Maktabgacha va maktab yoshidagi jismoniy hamda aqliy imkoniyati cheklangan bolalarni jismoniy tarbiyalashda *maxsus rejaga* ega bo'lish samarali hisoblanadi. Shu jihatdan quyidagi rejaga e'tibor bering:

T/R	Mavzular	Mashg'ulotlar vaqti(daqiqa)
1	Jismoniy imkoniyatlarni o'rganish	15
2	Aqliy imkoniyatlarni o'rganish	15
3	Massaj	10
4	Jismoniy mashq	10
5	Aqliy o'yin	15
6	Bolaning xohishiga ko'ra trening	15
7	Jismoniy muolaja	15
8	Bolani jismoniy chiniqtirish	15

Bunday reja asosida haftada 4 kun shug'ullanish davlat ta'lim standartlariga va malaka talablariga mos keladi. Shuni kerakki, jismoniy va aqliy imkoniyati cheklangan bolalarga ta'lim beruvchi pedagogik, fiziologik va tibbiy boshlang'ich tushunchalarga ega bo'lishi taqazo etiladi. Shu sababli oliy pedagogik ta'lim jarayonida "Davolovchi pedagogika" fanini chuqur o'zlashtirish taqazo etiladi.

Maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarni jismoniy tarbiyalashda innovatsion usullardan foydalanish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Unga ko'ra, pedagog Internet global axborot tarmog'i orqali innovatsion usullarni o'zlashtirib borishi kerak. Misol uchun Mariya Montessori o'tgan asrning 40-yillarida jismoniy va aqliy imkoniyati cheklangan bolalarni tarbiyalashda detektordan foydalanishni tavsiya etgan[4]. Chunki bu texnika shaxsning jismoniy va aqliy darajasini foizda ko'rsatadi. Shu ma'noda kompyuter axborot-kommunikatsion vositasidan foydalangan holda mazkur toifa bolalar bilan jismoniy mashg'ulotlar olib borish kutilgan samarani beradi. Buning uchun bolaga maxsus tayyorlangan

roliklar, animatsiyalar va multimediyalar ko'rsatilib, ularni bajarish tavsiya etiladi. Natijada bola mashg'ulotda qiziqish va faollik bilan ishtirok etadi.

Shunday qilib maktabgacha va maktab yoshidagi jismoniy hamda aqliy imkoniyatlari cheklangan bolalarni jismoniy tarbiyalash pedagogning kasbiy layoqati va mahoratiga bog'liq masaladir. Buning uchun oliy pedagogik ta'lim jarayonida "Davolovchi pedagogika" o'quv fani asoslarini chuqur o'zlashtirish taqazo etiladi.

REFERENCES

1. 2022-2026 yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasi.//www.zionet.uz.
2. Umirovich A. O., Abdumajitovna A. S. (2020). The Role of Social Intelligence in Personality Maturity. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, 24(4), 3983-3991.
3. Abdusalilova, S., & Qorayev, S. (2020). The Role of Pedagogical Technologies in the Formation of Students' Scientific Outlook. *European Journal of Molecular & Clinical Medicine*, 4377-4384.
4. Burkhonov, A., Avlaev, O., Abdusalilova, S., & Otaev, A. (2021). Responsibility as a criterion for determining personal maturity. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 244, p. 11059). EDP Sciences.
5. Абдумажитовна, Ш., Эшманова, Н. Н. (2021). Ўзбекистон олий педагогик таълим муассасаларида мутахассислик фанларини ўқитиш кластери. *Scientific progress*, 1(4).
6. Abdusalilova, S. (2022). Abdurauf Fitrat's Interpretation of " Music Pedagogy" Issues in Pedagogical Education. *International Journal of Culture and Modernity*, 12, 41-45.
7. Abdusalilova, S., & Sodiqova, N. (2021). The concept of pedagogical education in the family in the works of abdurauf fitrat. *current research journal of philological sciences* (2767-3758), 2(06), 46-50.
8. Абдужалилова, ША. (2021). Абдурауф фитратнинг педагогик таълим таълимотидан фойдаланиш модули. *Central Asian Academic Journal of Scientific Research*, 1(3), 41-48.
9. Абдужалилова, Ш., & Содиқова, Н. (2021). Оилада амалга ошиладиган педагогик таълим тушунчаси. *Scientific Progress*, 2(2), 752-760.